



ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG HAYOTI,UNING ADABIYOT SOHASIDA TUTGAN O'RNI

Yuldosheva Elmira Akmal qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti xorijiy til va adabiyoti ingliz tili 3-fakultet talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri, o'zbek va rus xalqining atoqli va ardoqli ijodkor farzandi Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti, uning samarali ijod yo'li, serqirra shoirning she'riy to'plamlari, nodir asarlari, tarjimonlik sohasidagi faoliyati va shu bilan birga o'zbek kinematografiyasiga qo'shgan hissasi haqida batafsil ma'lumotlar beradi.*

Kalit so'zlar: *badiiy adabiyot, she'riy to'plam, tarjima, kinematografiya, baynalmilal, unvon.*

"Adabiyot- xalqning yuragi, e'loning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

Darhaqiqat, adabiyot shunday bir dengizki, unda daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor; shunday bir chamanzorki, unda xushbo'y ifor taratgan gullar, hali ochilishga ulgurmagani g'unchalarning tarovati bor; shunday bir oltin ko'priki, u xalqni birlashtirib, do'stlik rishtalarini mustahkamlaydi. Qolaversa, inson ichki kechinmalari, qalb og'rig'i, ruhiyati, albatta, badiiy adabiyot va uni mutolaa qilish orqali o'z o'rnini topadi. Zero, adabiyotning tili bitta, san'at tilidir. Adabiyot sohasida faoliyat yuritib, o'z asarlarini jahonga targ'ib qilishda jonbozlik ko'rsatib, qalam tebratgan iste'dodli ijodkorlarimiz juda ham ko'p. Ana shulardan biri, boshqa millat vakili bo'lishiga qaramasdan, o'zining kamtarona ijod mahsullari bilan o'zbek xalqining yuragidan joy olishga ulgurgan, millatning dardi, ruhini baralla kuylagan, adabiyotning buyuk darg'alaridan biri shubhasiz, Aleksandr Faynberg edi.

Aleksandr Arkadevich Faynberg 1939- yil 2- noyabr kuni Toshkentning Jukovskiy mahallasida tavallud topgan. Otasi va onasi Novosibirskdan O'zbekistonga u tug'ilishidan oldin ko'chib kelgan. O'rta maktabni tugatgach, Toshkent topografiya texnikumida o'qishga kiradi. Texnikum tahsilini olgandan so'ng, 1965- yilda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetiga qabul qilindi. Shu bilan bir qatorda, Yozuvchilar uyushmasi va talabalar gazetasida adabiy maslahatchi sifatida tirishqoqlik bilan faoliyat olib borgan. Shu tariqa mahoratli ijodkorning asarlari birin- ketin dunyo yuzini ko'ra boshlaydi. Shoirning dastlabki she'rlari " Smena", " Sharq yulduzi", "Yoshlik", "Yangi dunyo", "Yangi Volga" jurnalida, keyinchalik, AQSH, Kanada, Isroil davriylarida ham nashr qilingan.



O'zbekistonning she'riyat osmonida Faynberg mubolag'asiz eng yorqin yulduzlardan biri hisoblanadi. Adib tobora ko'payib borayotgan she'rlarini "Etyud","Soniya","She'rlar","Erkin sonetlar","Qisqa to'lqin ","Velotrekklar" nomlari ostida she'riy to'plamlar holatiga keltirildi. Bundan tashqari,u Toshkent,Moskva va Sankt-Peterburgda nashr etilgan 13 ta she'riy to'plamlar muallifidir.Ayniqsa,shoir she'rlarida juda ko'p yorqin hazil bor."Rubayat torlari" she'rida u o'zbek choyxonasini o'zgarmas palov bilan shunday zavq bilan tasvirlaganki, uni tabassumsiz o'qib bo'lmaydi.

Adibni ko'p qirrali inson deb bermalol aytsak bo'ladi. U o'zining ishtiyoqi va jonkuyarliligi bilan o'zbek kinematografiyasida ham o'chmas iz qoldirib, salmoqli o'rin egalladi. Jumladan, uning o'tkir qalamiga 7 badiiy film ssenariysi tegishli. Bulardan eng muhimlari- "Ko'k osmonning o'zida","Issiq quyosh ostidagi uy","Qandahor ostida yonib ketgan",shuningdek,ulug' siymo 18 ta animatsion film ssenariylari muallifi hamdir.Ayniqsa,uning nasri ko'plab adabiyot shinavandalarini jalb qilib,qiziqish uyg'otadi.1999- yil "Paxtakor" futbol jamoasining fojiali halokatdagi o'limi munosabati bilan uning ssenariysi asosida "Ularning to'p maydoni osmonda " nomli film suratga olingan bo'lib, filmning qo'shiq matni ham Aleksandr Faynberg qalamiga mansub.

O'zbek xalqiga bo'lgan yuksak hurmati tufayli fidokor shoir o'z vaqtida tarjimonlik bilan ham shug'ullandi. Mashhur o'zbek adiblarining she'riy to'plamlarini rus tiliga tarjima qildi. G'azal mulkning sultoni, bobomiz Alisher Navoiy g'azallarini, Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonini, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Asqad Muxtor, Usmon Azim, Sirojiddin Sayid, Azim Suyun va boshqa shoirlarning she'rlarini rus tiliga mohirona tarjima qilgan.Shoirlar she'rlaridan tarjima qilganlari jamlanib Toshkentda"Oqqushlar galasi" nomi ostida nashr qilindi. Mahoratli rusiyzabon shoirning tarjimalari orqali nafaqat o'zbek xalqi, balki Yevropa mamlakatlari ham bahramand bo'lishdi.

Ko'p yillik samarali mehnati va tashabbuskorligi tufayli 1999- yil 23- avgustda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni bilan taqdirlandi. 2004-yil 23- avgustda esa "O'zbekiston xalq shoiri" deb e' tirof etildi. Aleksandr Faynberg Rossiya Prezidenti farmoni bilan O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo'shganligi uchun 2009-yilda Pushkin medaliga sazovor bo'ldi.

Xulosa: qilib aytadigan bo'lsak,shoir ijodi o'zining serqirraligi bilan kishi ruhiyatini ko'taradi,ichki olamini yorqin tuyg'ular bilan boyitishga yordam beradi.Shoir badiiy so'zni chuqur va to'laligicha his etadi va bu hisga o'quvchini ham sherik qiladi.Uning she'riyatidagi jozibas ham turlicha fe'l - atvor,qarashlar, turli yoshdagi insonlar qalbini zabt etdi.Bu jonkuyarliligi va sa' y- harakatlari tufayli nafaqat hayotlik chog'larida yurt ardog'ida bo'ldi, balki bir necha yillar o'tganiga qaramasdan hozir ham ijodiyotlari sevib o'qiladi,o'rganiladi,bir so'z bilan aytganda shoir xalq e'tibori va e'tirofida



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr-Faynberg>.
2. https://aroblar.uz/Faynberg_Aleksandr
3. Alexander Fainberg- San Attempt to Autobiography.
4. https://aroblar.uz/aleksandr_Faynberg/1939-2009.